

O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA BIR SEMALI VA KO'P SEMALI LEKSEMA LARNING LINGVISTIK TAHLILI

Ravshanova Tursuntosh - TerDU talabasi
Ilmiy rahbar: Dilrabo Ergasheva

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilimizni qo'llaniladigan bir semali va ko'p semali so'zlarning lingvistik tahlili ko'rib chiqiladi. Tahlil uchun O'tkir Hoshimovning asarlariga murojaat qilinadi.

Kalit so'zlar: Bir semali, ko'p semali, lingvistik tahlil, O'tkir Hoshimov, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"

An'anaviy tilshunoslik bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni farqlaganligi kabi sistem tilshunoslikda bir semali va ko'p semali leksemalar farqlanadi. Leksemalarning bir semali va ko'p semali leksema ekanligini qanday aniqlab olish mumkin? Agarda leksema bir tushunchani ifodalasa, u bir semali leksema deyiladi. Masalan, qalam leksemasi bir tushunchani ifodalaydi va shu sababli bir semali leksema hisoblanadi. Ammo nutqda leksema ko'chma qo'llanishlarda turli xil tushunchalarini ifodalayverishi mumkin. Bu holda u ko'p semali leksema hisoblanadi. Ko'p semali leksemalar bir semali leksemalarning bora-bora barqarorlashib borishi va nutqiy hosila ma'nosi lisoniyashishi natijasida hosil bo'ladi. Agarda leksema ko'p ma'noli bo'lsa, har bir semada turlicha tushuncha ifodalaydi. Ularning qanday ma'noni anglatayotganligi faqatgina qurshovda bilinadi. Ko'p semali so'zga quyidagi so'zni misol keltirishimiz mumkin. Qashqirlar tog'-toshlar aro izg'ishadi. Ushbu gapdag'i qashqirlar so'zini ikki xil ma'noda tushunishimiz mumkin. Qashqir deb aslida tog'larda yashovchi o'ta yirtqich bo'rige aytildi. Ikkinchisi bir ma'nosi esa tog'larda yashovchi yirtqich kishilarga nisbatan qo'llanadi.

Tahlil uchun O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asariga yuzlanamiz. Yozuvchi asarda bir semali va ko'p semali so'zlardan keng foydalangan. Kiyik och qolmaslik uchun ko'kat yeydi. Ammo bir-birini o'ldirmaydi. Sher och qolmaslik uchun kiyikni yeydi. Ammo bir-birini o'ldirmaydi. Odam ko'katni ham yeydi. Kiyikni ham yeydi. Ko'ngil hushi uchun sherni ham o'ldiradi... Keyin.. urush qilib, bir-birining boshini yeydi... Ushbu gapdag'i kiyik, odam, ko'kat so'zlari bir semalidir. Chunki ular faqat bir ma'nodagina qo'llanadi. Och, bosh so'zlari ko'p semalidir.

- 1) Och - 1) och qolmoq;
- 2) ochmoq;
- 3) rang ma'nosini qo'llashda ishlataladi

- Bosh – 1)tananing bo'yindan yuqori qismi ;
- 2) aql- hush , miya ;
- 3) muhim , asosiy , yetakchi ;
- 4) oldingi , katta

Kecha buyuk ixtiolar qilgan olim bugun eng yaxshi shogirdidan ayrilsa hayratlanmay ilojim yo'q .

Mazkur gapdag'i kecha so'zi ko'p semali va olim , shogird so'zlari bir semalidir .

Kecha - 1)sutkaning qorong'i tushgandan tong otguncha o'tadigan qismi ; tun

2)biror narsaga bag'ishlangan , odatda rasmiy va badiiy qismdan iborat bo'ladigan kechki umumiylig'i yig'ilish

Boshimga tashvish tushsa, bir narsadan qattiq siqilsam, onam tushimga kiradi. Tush: 1) rang yoki bo'yoq.

- 2) uyquda vujudga keladigan psixik hodisa, jarayon.
- 3) quyosh qoq tepaga kelgan payt.
- 4) tushmoq- harakatni ifodalaydi

Erkak bilan ayol munosabatida aybni nuqul erkakdan izlash insofdan emas.

Iz: 1)biror narsa yuzasida boshqa narsadan qolgan aks.

- 2)biron narsa yoki shaxsdan qolgan belgi.
- 3)yurish davomida yerda qoladigan uzun iz, yo'l.

4)bosib o'tilgan yoki o'tiladigan yo'l.
5)ish-harakat faoliyatidagi yo'nalish.

6)tramvay va poyezdlarning g'ildiraklari tagiga yotqiziladigan maxsus qurilma.

Qishloqda kuz pallasida tomsuvoq qilish udumi bo'lardi.

Palla: 1)ma'lum bir vaqt yoki payt.

- 2)bosqich, pog'onasiga,davr.
- 3)tarozining narsa yoki toshi qo'yiladigan har bir taqsimlash.
- 4)umaloq narsaning teng ikkiga bo'lingan qismlaridan biri.

So'z birikmalarida ham xuddi so'zlardagidek bir semalilik va ko'p semalilik kuzatiladi . So'z birikmalarida ko'p semalilik kuzatilganda ulardan biri ibora bilan ifodalanadi . Masalan , boshga ko'tarmoq birikmasi bir o'rinda ibora tarzida qo'llanadi .

- Boshga ko'tarmoq -1) e'zozlamoq ;
- 2) shovqin solmoq

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahimov S., Umurqulov B. HOZIRGI OZBEK ADABIY TILI //Toshkent: O‘qituvchi. – 2003. – Т. 220.
2. Yakubova D., Qul’torayeva S., Umurqulov B. LINGVISTIK KORPUSDA MA’LUMOTLARNI RASMIYLASHTIRISH //«УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЗДАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОЗДАНИЕ ВОПРОСЫ» Международная научно-практическая конференция. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
3. Sadoqat R., Umurqulov B. O’ZBEK TILI LEKSIKASINING ISHLATILISHI. – 2022.
4. Baxavadinovna S. I. O’ZBEK TILI MILLIY KORPUSIDA YORDAMCHI SO’ZLAR BAZASI (SO’ROQ-TAAJJUB YUKLAMALARI MISOLIDA) //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 312-320.
5. Baxovadinovna S. I. Linguocultural phraseology in Uzbek language //INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 28-30.
6. Холова М. А. ШЕВАЛАР КОРПУСИНИНГ ЖАНРИЙ ТЕГЛАШНИНГ ЛИНГВИСТИК АСОСЛАРИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 4.
7. Холова М. А. O’ZBEK SHEVALARINING STANDART TILGA MUNOSABATI VA TIL TIZIMIDAGI O’RNI (BOYSUN TUMANI “J” LOVCHI SHEVALAR MISOLIDA) //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2020. – Т. 3. – №. 5.
8. Холова М. А. BOYSUN SHEVASI KORPUSI: IBTIDO (BOYSUN TUMANI “J” LOVCHI SHEVALAR MISOLIDA) //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2020. – №. SI-2 № 5.